

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI O'RGATISHNING  
INNOVATSION METODLARI****Ikramova Nigina Aminovna**

Buxoro innovatsiyalar universiteti

Pedagogika, psixologiya va sport kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17775139>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishning zamonaviy innovatsion metodlari, ularning nazariy asoslari va amaliy tatbiqi kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda bolalarning yoshiga xos psixologik-pedagogik xususiyatlari, kognitiv rivojlanish bosqichlari va til egallash mexanizmlari asosida zamonaviy yondashuvlar tavsiflanadi. Raqamli texnologiyalar, gamifikatsiya, immersiv usullar, multisensor ta'lim, sun'iy intellekt vositalari va kommunikativ metodologiya keng qamrovda o'rganilgan. Maqolada xorijiy ilg'or tajribalar, zamonaviy pedagogik konsepsiyalar hamda O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimi sharoitida innovatsion metodlarni joriy etish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Tadqiqot natijalari pedagog kadrlarning metodologik kompetensiyalarini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, chet tili o'qitish, innovatsion metodlar, gamifikatsiya, raqamli texnologiyalar, immersiv ta'lim, multisensor yondashuv, kognitiv rivojlanish, kommunikativ metodologiya, pedagogik innovatsiya.

Zamonaviy globallashtirish jarayonlari va xalqaro hamkorlikning kengayishi kontekstida xorijiy tillarni bilish inson kapitalining muhim komponenti sifatida tan olinmoqda. Ko'plab rivojlangan mamlakatlar chet tili ta'limini maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlab amalga oshirishga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Bu yondashuv ilmiy tadqiqotlar bilan asoslangan holda, erta yoshda tillarni o'zlashtirishning neyrolingvistik afzalliklari, bolaning tabiiy til egallash qobiliyati va kognitiv rivojlanish imkoniyatlariga asoslanadi. Neyrofiziologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yosh davri miya plastikligining eng yuqori bo'lgan davri bo'lib, bu davrda til markazlarining intensiv rivojlanishi va fonetik tizimlarni farqlash qobiliyatining shakllanishi amalga oshadi. O'zbekiston Respublikasida ham chet tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish, yoshlar ta'limini rivojlantirish va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida chet tillarini o'rgatish metodologiyasini takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish va pedagog kadrlarning malakasini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridir. Ushbu tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishda qo'llaniladigan zamonaviy innovatsion metodlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning nazariy-metodologik asoslarini ochib berish va O'zbekiston ta'lim tizimi sharoitida amaliy joriy etish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Maqolada xalqaro tajribalar, zamonaviy pedagogik konsepsiyalar va empirik tadqiqotlar asosida maktabgacha ta'limda chet tili darslarini samarali tashkil etishning innovatsion strategiyalari tahlil qilinadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatish jarayoniga yondashuvda ushbu yosh davriga xos psixologik, kognitiv va fiziologik xususiyatlarni chuqur anglash zarur. Uch yoshdan olti-etti yoshgacha bo'lgan davr bolaning shaxsiy va intellektual rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, bu davrda miyaning neyronlari o'rtasida yangi aloqalar intensiv tarzda shakllanadi va yangi bilimlarni o'zlashtirishga maksimal tayyorgarlik yuzaga keladi.

Neyrolingvistik tadqiqotlar shuni isbotlaganki, erta yoshda til egallash jarayonida miyaning maxsus til markazlari faollashadi va bolalar tilni tabiiy, intuitiv yo'l bilan, ongli grammatik tahlil qilmasdan o'zlashtirishlari mumkin. Bu davrda bolalar atrofdagi nutqiy muhitdan tilni imitatsiya qilish, taqlid etish va real kommunikativ vaziyatlarda qo'llash orqali til ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Shu sababli, maktabgacha yoshda chet tili ta'limini tashkil etishda tabiiy til egallash mexanizmlariga asoslangan, o'yinli, interaktiv va emotsional jihatdan ijobiy yondashuvlar eng samarali natija beradi.

Zamonaviy til o'qitish metodologiyasida kommunikativ yondashuv dominant pozitsiyani egallaydi. Bu yondashuvga ko'ra, til birinchi navbatda muloqot vositasi sifatida qoraladi va ta'lim jarayonida tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalari shakllantiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu yondashuv ayniqsa maqsadga muvofiq, chunki ular tilni formal ravishda o'rganishga emas, balki real ehtiyojlar va qiziqishlar asosida o'zlashtirishga moyildirlar. Kommunikativ metodologiya doirasida bolalar kundalik hayotiy vaziyatlarni modellashtiruvchi dialoglar, rolga asoslangan o'yinlar, sirojetli faoliyatlar va ijtimoiy interaksionlar orqali tilni egallashadi. Emotsional-motivatsion jihatlar ham alohida ahamiyat kasb etadi, chunki maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'rganish jarayoni qiziqarli, his-tuyg'ularga boy va ijobiy muhitda amalga oshirilishi zarur. Individual yondashuv tamoyili har bir bolaning o'ziga xos rivojlanish sur'ati, qobiliyatlari, psixologik xususiyatlari va qiziqishlarini e'tiborga olishni talab qiladi.

Raqamli texnologiyalarning tez sur'atlar bilan rivojlanishi maktabgacha ta'limda chet tilini o'rgatish metodologiyasiga yangi dimensiya olib keldi. Interaktiv o'quv dasturlari, mobil ilovalar, multimedia vositalari va virtual reallik texnologiyalari bolalarga tilni o'rganishning vizual, audio va intuitiv usullarini taqdim etmoqda. Zamonaviy ta'lim dasturlari bolalarning diqqatini jalb qiluvchi rang-barang animatsiyalar, interaktiv personajlar, ovoqli effektlar va o'yin elementlari bilan ta'minlangan. Gamifikatsiya, ya'ni o'yin mexanizmlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng samarali motivatsion strategiyalardan biridir. Virtual mukofotlar tizimi, darajalarni bosib o'tish, yutuqlarni to'plash va raqobat elementlari bolalarning chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Biroq, texnologiyalardan foydalanishda maktabgacha yoshdagi bolalarning ekran vaqtini cheklash, sog'lom rivojlanishni ta'minlash va texnologiyalarni pedagogik jarayonning yordamchi vositasi sifatida qo'llash tamoyillariga amal qilish zarur.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limda qo'llanilishi maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishda yangi imkoniyatlar ochmoqda. AI asosidagi ta'lim tizimlari har bir bolaning individual o'rganish xususiyatlariga moslashib, shaxsiylashtirilgan ta'lim traektoriyasini taqdim etadi. Nutqni tanish texnologiyalari bolalarning talaffuzini tahlil qilish va real vaqtda tuzatish imkonini beradi, bu esa fonetik ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Adaptiv o'rganish tizimlari bolaning bilim darajasini doimiy monitoring qilish orqali topshiriqlar murakkabligini avtomatik ravishda sozlaydi va har bir bolaning optimal rivojlanish zonasida ishlashini ta'minlaydi. Virtual yordamchilar va chatbotlar bolalar bilan oddiy dialoglarni olib borish, savollarga javob berish va kommunikativ amaliyot uchun doimiy sherik bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Gamifikatsiya maktabgacha ta'limda chet tilini o'rgatishning eng perspektivli innovatsion yondashuvlaridan biri hisoblanadi. O'yin bolaning tabiiy faoliyat shakli bo'lib, u orqali kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanish amalga oshadi. Chet tili darslarida rolga asoslangan o'yinlar, sirojetli o'yinlar, didaktik o'yinlar va harakatli o'yinlardan keng foydalanish til ko'nikmalarini

tabiiy muhitda rivojlantirishga yordam beradi. Rolga asoslangan o'yinlarda bolalar turli ijtimoiy vaziyatlarni modellashtiradilar - do'konda xarid qilish, shifoxonaga tashrif, mehmonlarga salom berish va shunga o'xshash real hayotiy situatsiyalar orqali til funksiyalarini amalda o'zlashtirishadi. Didaktik o'yinlar maqsadli ravishda ma'lum til materialini o'zlashtirishga mo'ljallangan bo'lib, leksik birliklarni eslab qolish, grammatik konstruksiyalarni mustahkamlash vazifalarini bajaradi. Harakatli o'yinlar jismoniy faollik bilan tilni o'rganishni birlashtiradi va Total Physical Response metodologiyasining amaliy ifodasidir.

Immersiv yondashuv yoki to'liq cho'mdirish metodi chet tilini o'rgatishda tabiiy tilni egallash muhitini yaratishga asoslanadi. Bu metodda bolalar maksimal darajada chet tilidagi muhitda bo'lislari, pedagoglar asosan o'rganilayotgan tilda muloqot qilishlari va ta'lim jarayonlari chet tilida olib borilishi nazarda tutiladi. Immersiv yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ayniqsa samarali, chunki ular tilni analitik o'rganish o'rniga tabiiy ravishda o'zlashtirish qobiliyatiga ega. To'liq immersiyani amalga oshirish amaliy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin, shuning uchun qisman immersiv dasturlar keng qo'llaniladi. Chet tilidagi muhitni yaratishda vizual materiallar muhim rol o'ynaydi - xonalarni chet tilidagi plakatlari, so'z kartalari, rasmlar bilan bezash, audio materiallarni muntazam eshittirish, chet tilidagi qo'shiqlar va she'rlarni o'rganish tilni tabiiy kontekstda o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Multisensor yondashuv bolalarning barcha sezgi organlarini ta'lim jarayoniga jalb qilishni nazarda tutadi va zamonaviy neyrofiziologik tadqiqotlar bilan tasdiqlangan ilmiy asosga ega. Ko'p kanalli axborot qabul qilish xotira mustahkamlanishini va bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishni ta'minlaydi. Chet tili darslarida multisensor yondashuvni amalga oshirish uchun vizual, audial, kinestetik va taktil elementlardan kompleks foydalanish zarur. Vizual komponentlar rasmlar, flashkartlar, videolavhalar, rangli predmetlar va vizual taqdimotlarni o'z ichiga oladi. Audial elementlar qo'shiqlar, uyqashlar, she'rlar, audio ertaklar va turli ovoqli effektlardan iborat. Kinestetik ta'lim harakatlar, ishora-imo'lar, raqs elementlari va jismoniy faollik orqali amalga oshiriladi, bunda Total Physical Response metodi muhim o'rin tutadi.

Taktil elementlar turli fakturali materiallar, o'yinchoqlar, qo'g'irchoqlar va sensorli o'yinlar orqali joriy etiladi.

Storytelling yoki hikoyalash metodi maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishda juda samarali vosita hisoblanadi. Ertaklar va hikoyalar bolalarning tasavvurini, emotsional intellektini va til qobiliyatlarini birgalikda rivojlantiradi. Hikoyalar orqali bolalar yangi so'zlarni kontekstda o'zlashtirishadi, grammatik konstruksiyalarni tabiiy shaklda eshitishadi va nutqning uslubiy xususiyatlarini sezadilar. Chet tilidagi hikoyalar bolalarga til strukturasini anglatish emas, balki his-tuyg'ular va tasavvurlar orqali tilni yashash imkoniyatini beradi. Hikoyalashda interaktiv usullardan foydalanish, bolalarga savol-javob qilish, hikoya sirojetini birgalikda rivojlantirish, personajlar harakatlarini takrorlash bolalarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Dramalashtirish va qo'g'irchoq teatri orqali hikoyalarni jonlantirish bolalarda ijodiy faollikni, til ishlab chiqarishni va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Musiqali faoliyatlar til o'rganishda alohida o'rin tutadi va ko'p jihatli pedagogik ta'sir ko'rsatadi. Qo'shiqlar, uyqashlar va ritmik o'yinlar orqali bolalar tilning fonetik xususiyatlarini, intonatsiyasini va ritmini tabiiy ravishda o'zlashtiradilar. Musiqa xotiraga ta'sir qiluvchi kuchli vosita bo'lib, qo'shiq shaklida o'rganilgan materiallar uzoq muddatga esda qoladi. Qo'shiqlar orqali leksik birliklar, grammatik konstruksiyalar va nutqiy shakillarni kiritish metodologiyaning muhim komponentidir.

Oddiy va takrorlanuvchi matnli qo'shiqlar, harakatlar bilan birga ijro etiladigan qo'shiqlar, sanoq va alifbo qo'shiqlari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ideal ta'lim vositasi.

Ritimik o'yinlar fonetik ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali usul bo'lib, bolalar tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'z urg'ularini aks ettirish va intonatsiya naqshlarini egallab olishadi.

Ijodiy faoliyatlar - rasm chizish, haykaltaroshlik, qo'l mehnatlari - til o'rganish jarayonini yanada samarali va ko'p tomonlama qiladi. Bolalar o'z qo'llari bilan biror narsa yaratgan holda, bu jarayonni chet tilida tavsiflab, yangi so'zlarni amaliy kontekstda o'rganishadi.

Ranglarni o'rganishda turli rangdagi materiallar bilan ishlash, hayvonlar haqida gaplashishda hayvonlar rasmlarini chizish, ob-havo mavzusida tabiat manzaralarini chizish tilni o'zlashtirishni vizual-manual faoliyat bilan integratsiya qiladi. Bunday yondashuv bolalarning bir vaqtning o'zida bir nechta rivojlanish sohasida - kognitiv, ijodiy, nozik motorika va lingvistik - o'sishini ta'minlaydi. Kollaj yasash, origami, applique va boshqa qo'l mehnatlari jarayonida berilgan ko'rsatmalarni chet tilida eshitish va bajarish bolalarning til tushunishini va bajaruv ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

#### **Xulosa va Takliflar:**

Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishning innovatsion metodlari zamonaviy pedagogika, lingvodidaktika va kognitiv psixologiya yutuqlariga, raqamli texnologiyalar imkoniyatlariga hamda bolalar rivojlanishi qonuniyatlariga asoslanadi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, erta yoshda chet tilini o'rganish neyrofiziologik jihatdan optimal bo'lib, bu davrda tillarni tabiiy yo'l bilan o'zlashtirishning maksimal imkoniyatlari mavjud va miya plastikligi yuqori darajada namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishda o'yinli, interaktiv, kommunikativ va multisensor yondashuvlar, gamifikatsiya elementlari va immersiv metodlar eng samarali pedagogik strategiyalar hisoblanadi. Uchinchidan, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalaridan pedagogik asoslangan va cheklangan holda foydalanish ta'lim jarayonini boyitadi, shaxsiylashtirish darajasini oshiradi va bolalarning motivatsiyasini mustahkamlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Cameron L. Teaching Languages to Young Learners. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 276 p.
2. Copland F., Garton S., Burns A. Challenge and Change in Language Education: Teaching Young Learners. – London: British Council, 2018. – 198 p.
3. Ellis R. Understanding Second Language Acquisition. 2nd edition. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 384 p.
4. Lightbown P.M., Spada N. How Languages Are Learned. 5th edition. – Oxford: Oxford University Press, 2021. – 280 p.
5. Moon J. Children Learning English: A Guidebook for English Teachers. – Oxford: Macmillan Education, 2020. – 224 p.
6. Nikolov M., Djigunović J.M. Recent research on age and early foreign language learning // Annual Review of Applied Linguistics. – 2019. – Vol. 39. – P. 122-144.
7. Pinter A. Teaching Young Language Learners. 2nd edition. – Oxford: Oxford University Press, 2017. – 246 p.
8. Shin J.K., Crandall J. Teaching Young Learners English: From Theory to Practice. – Boston: National Geographic Learning, 2018. – 352 p.

9. Tomlinson B., Masuhara H. The Complete Guide to the Theory and Practice of Materials Development for Language Learning. – New Jersey: Wiley-Blackwell, 2018. – 560 p.
10. Yuldasheva M.K., Rahimov Z.T. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va chet tili ta'limi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. – 192 b.